

Havoning ahamiyati



Havo – bu jonsiz tabiatning bir qismi. U bizni barcha joyda: ko'chada, uyda, suvda, yerda o'rab turadi. Yer yuzidagi har qanday joy havo bilan to'la.

Havo Yer yuzidagi barcha tirik jonzorlar uchun nihoyatda zarur. Havo insonlar va hayvonlarga faqat nafas olishlari uchun kerak. Qushlar va hasharotlarga esa nafas olishdan tashqari, havo ularning uchish paytida muvozanatni saqlashlari uchun ham kerak. Daraxtlar va o'simliklarning ildizi va yaproqlariga havo bormay qolsa, ular nobud bo'ladi.

Havo shaffof va rangsiz

Havo shaffof bo'lgani uchun uni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Biz faqat havodagi narsalarni, masalan, bulutlar, chang yoki bug'ni ko'ra olamiz. Toza havo quyosh nurini yaxshi o'tkazgani uchun Yer yuzasi qiziydi.

Havoning hidi yo'q

Ko'chada, tabiat qo'ynida yoki uyda biz sezadigan turli hidlar – havo bilan aralashgan hidli moddalarning nihoyatda mayda zarrachalaridir.

Havoning vazni, bosimi bor

Havo nihoyatda yengil, vaznsizdek tuyulsa ham, u Yer yuzidagi barcha narsaga bosim o'tkazadi. Biz uni atmosfera bosimi deb ataymiz.

Havo hamma joyga kirib bora oladi

Havo juda ko'p material va jismlarga kirib boradi. Masalan, nafas olganimizda, havo burun va og'iz bo'shlig'imiz orqali o'pkamizga kirib boradi.

Havo tovushni o'tkazadi

Havo tovush to'lqinlarini yaxshi o'tkazgani uchun biz turli tovushlar, musiqa va shovqinlarni bimalol eshitamiz.

Havo kengayishi, torayishi mumkin

Havo qiziganda kengayib, soviganda siqiladi. Bu shamollar paydo bo'lishiga olib keladi.



1. Biz atrofimizdagi havoni qaysi sezgi a'zolarimiz bilan sezamiz?
2. Havoning qanday xususiyati tufayli biz atrofimizdagi narsalarni bimalol ko'ra olamiz?
3. Rasmdagi jismlar yordamida atrofimizda havo borligini qanday bilish mumkin?





Afsuski, ko'p joylarda, ayniqsa, katta shaharlarda havo nihoyatda ifloslanib ketgan. Shahar transportlarining ko'pchiligi havoga zararli gazlarni chiqaradi. Zavod va fabrikalardan ham atmosferaga turli zararli moddalar va gaz aralashmalari chiqadi.



Havoning ifloslanishi insonlar va jonivorlarning hayotiga katta zarar keltirishi, nafas olishni qiyinlashtirishi, allergiya va shu kabi ko'plab kasalliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Biz atmosferamizning tozaligi va salomatligi o'zimizga bog'likligini unutmasligimiz va uni asrash uchun barcha choralarni ko'rishimiz zarur.



Havosi karbonat angidrid, chang va qurum bilan ifloslangan zamonaviy shaharlar hozir mana shunday ko'rinishga kelib qolgan.

1. Bunday shaharlarda havoning harorati nima uchun va qanchalik o'zgaradi?
2. Bunday shaharning aholisi o'zini qanday his qiladi?
3. Agar havoda karbonat angidrid gazi juda ko'p bo'lsa, o'simliklarga qulay bo'ladimi?